

MONEMANING GAPDAGI O'RNI

Xamrokulova Iymona

Samarqand davlat chet tillar instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10659279>

Annotatsiya: Ushbu maqolada funksional tahlil nazariyasi va "monema" termini xususida batafsil ma'lumotlar berilgan bo'lib, ularning asosiy xususiyatlari misollar asosida tahlil qilingan. Til birliklarining nutqqa ko'chish jaroyonida ro'y beradigan o'zgarishlar va ularning bajaradigan vazifalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: monema, muxtor monema, yarim funksional monema, paradigmatic va sintagmatik munosabat, qaram monema, predikativlik.

THE PLACE OF MONEMA IN THE SENTENCE

Abstract. This article provides detailed information about the theory of functional analysis and the term "monema", and their main features are analyzed on the basis of examples. The changes that occur in the process of the transfer of language units to speech and the tasks they perform are studied.

Key words: monema, autonomous monema, semi-functional monema, paradigmatic and syntagmatic relationship, dependent monema, predicativeness.

МЕСТО МОНЕМЫ В ПРЕДЛОЖЕНИИ

Аннотация. В данной статье представлена подробная информация о теории функционального анализа и термине «монема», а также на основе примеров проанализированы их основные особенности. Изучены изменения, происходящие в процессе передачи языковых единиц в речь, и задачи, которые они выполняют.

Ключевые слова: монема, автономная монема, полуфункциональная монема, парадигматические и синтагматические отношения, зависимая монема, предикативность.

Biz monemalarni o'rganar ekanmiz, avvalo, funksional tahlil nazariyasi haqida gapirib o'tishimiz kerak. Funksional tahlil nazariyasi til birliklarining nutqqa ko'chirilganda bajaradigan vazifasini sof lingvistik jihatdan o'rganishimizga imkon beradi. Praga tilshunoslik vakili hisoblangan Andre Martine funksional tahlil nazariyasi orqali jahon tilshunosligida katta shuhrat qozondi. U mazkur nazariyada nutqning eng kichik birligi deb hisoblangan "monema" lar haqida quyidagi fikrlarni olg'a suradi: "Agar fonologik tahlil fonemalarni eng kichik ifodalovchi til birliklari tarzida o'rganishdan boshlansa, funksional tahlil jumlani yoki uning ma'lum bir qismini eng kichik ma'no anglatuvchi biz monema deb atayotgan birliklarga bo'lib o'rganishdan boshlanadi" [1.451].

A.Martine o'z asarlarida monemalarni to'laqonli tarzda tavsiflab berdi. U monemalarni tildan nutqqa ko'chirilayotgan holatdagi vazifasiga qarab 3 guruhga bo'lib o'rganadi:

1) Muxtor monema (Avtonom); 2) Funksional monema; 3) Qaram monema.

"Monemalarning turlarga bo'linishi ularning nutq doirasida bajaradigan funksiyalari bilan bog'liq. Zotan, ba'zi monemalar nutqda o'zlarini funktsiya bilan ta'minlashdan tashqari, o'zga monemalarga ham funksional, ya'ni faollik bera olsa, ayrim monemalar faqat o'zlarinigina

funksiya bilan ta'minlaydi va o'zlari o'zlariga sintaktik faollik beradi, boshqa bir monemalar esa funksional faollik olish uchun ikkinchi monemaga qaram bo'ladi"[2.24]. Muxtor monemalar haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ular funksiyasiga ko'ra gapda qo'shimcha ma'no yuklaydi, voqe'likka munosabatni ifodalaydi, hamda tildan nutqqa to'g'ridan to'g'ri ko'chadi, shu bilan birga gap tarkibida boshqa monemalar bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, shuningdek, qolgan monemalarga tobe holda ham kelmaydi. Muxtor monemalar shu jihatdan ham sintaktikasiga ko'ra mustaqil so'z, kirish so'z, kirish birikma, undalma, ravish, sifat, son, ot kabi vazifalarda kelishi mumkin. Lekin fe'l so'z turkumi vazifasida kelgan so'z muxtor monema vazifasida kelmaydi. Buni L.Tenyerning fe'lning boshqa so'z turkumlarini boshqarishi xususidagi nazariyasida yaxshiroq o'rganib chiqishimiz mumkin [3].

Quyida muxtor monemani mustaqil so'z bilan ifodalanishini misol orqali ko'rib chiqamiz:

1.Xo'sh, ma'nosini tushundingmi, o'rtoq? /Oybek. Bolalik xotiralarim 146. /

2.Toshbaqa hamon sudralib bormoqda. /Asqad Muxtor. Chinor 219. /

1-gapda 2ta muxtor monema qo'llangan. Birinchisi, **Xo'sh** modal so'zi orqali ifodalanyapti. Shuni aytib o'tishimiz mumkinki, agar biz muxtor monemani gapdan olib tashlaydigan bo'lsak, gapning sintaktikasida o'zgarish bo'lmaydi, lekin semantikasi biroz o'zgaradi, chunki muxtor monema bevosita gapning kesimi bilan aloqada bo'ladi: **Xo'sh, tushundingmi?** Bu yerda **xo'sh** modal so'zi tinglovchining diqqatini tortish maqsadida so'zlovchi tomonidan nutqqa olib kirilyapti. Agar bu monemani olib tashlaydigan bo'lsak, gapdagi modallik ma'nosi kamayadi: **Xo'sh, ma'nosini tushundingmi, o'rtoq? - Ma'nosini tushundingmi, o'rtoq?**

Bu gapda ishtirok etayotgan keyingi muxtor monema - **o'rtoq** so'zi. U undalma vazifasida kelyapti. Shuningdek, u gap tarkibida hech qaysi monemaga funksiya bermayapti, hamda o'zi ham qaram bo'lmayapti. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, muxtor monemalarning gapdagi o'rni erkin bo'ladi, ya'ni ularni gapning boshida ham, o'rtasida ham, oxirida ham qo'llasa bo'ladi: **O'rtoq, xo'sh, ma'nosini tushundingmi? Xo'sh, o'rtoq, ma'nosini tushundingmi? - Xo'sh, ma'nosini tushundingmi, o'rtoq?**

Berilgan 2-misoldagi gapda muxtor monema **hamon** so'zi bilan ifodalanyapti, ya'ni payt ravishi bilan. Bu misolda muxtor monemaning mustaqil so'z bilan idodalanilyotganini ko'rishimiz mumkin. **Hamon** so'zi gapning mazmuniga qo'shimcha ma'no yuklab, ish-harakatning haligacha davom etayotganini bildiriyapti. Bu muxtor monemani gapdan olib tashlasak, gapning mazmunida katta o'zgarish yuz bermaydi, chunki bu so'z gapning boshqa bo'laklari bilan sintaktik jihatdan aloqaga kirishmayapti: **Toshbaqa hamon sudralib bormoqda – Toshbaqa sudralib bormoqda.**

Bizningcha, gapda boshqa bo'laklar bilan aloqaga kirishmaydigan bo'laklarning sifati ularning gapdagi o'rni erkin ekanligi bilan namoyon bo'ladi, sababi ular hech qaysi monemaga tobe ham bo'lmaydi, hamda o'ziga tobe ham qilmaydi.

Gaplar faqatgina so'zlardan hosil bo'lmaydi, balki gapni shakllanishida sintaktik va semantik jihatdan so'zlarni bir-biriga bog'lovchi **funksional monemalar** kerak bo'ladi. Masalan: **Men ot minmoq.** Bu misolda til birliklarining nutqqa ko'chmasdan oldingi holati berilgan. Agar bu til birliklarini nutqqa ko'chiradigan bo'lsak, funksional monemalar orqali bu ishni amalga oshiramiz: **Men otga mindim.** Boshqacha qilib aytganda, funksional monemalar til birliklarini nutqqa ko'chishida yordam beradigan asosiy vositachilardan biri hisoblanadi. Funksional monemalar gapda ham o'zi vazifa bajaradi, ham boshqa monemalarni funksiya bilan ta'minlaydi.

Mana shu funktsiya bilan ta'minlangan monemalar funksional monemalarga qaram bo'lib qoladi. A. Martine nazariyasida "Funksional monemalar orqali sintaktik faollikka erishadigan so'zlar / yoki til belgilari / **qaram monemalar** ",- deb ataladi [1. 463-470] Bu fikrdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, agar gapda funksional monema qatnashsa, demak qaram monema ham, albatta, qatnashadi.

Funksional monemalar o'zbek tilida, asosan, qo'shimchalar, yordamchi so'zlar orqali ifodalanadi. Boshqa tillarda esa artikl, predlog bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi predlog vazifasida kelgan funksional monemalarni tahlil qilamiz: *I bought books for my brother last week*. Bu misolda funksional monema vazifasida *for* predlogi kelyapti, *for* predlogi o'zidan keyin kelayotgan *my brother* monemasini o'ziga qaram qilgan holda unga qo'shimcha ma'no yuklayapti. Shuning uchun, *for* predlogi- **funksional monema** vazifasida, *my brother*-so'zi **qaram monema** vazifasida kelyapti. Shu jihatiga ko'ra aytishimiz mumkinki, ingliz tilida funksional monema vazifasida keladigan so'z, ko'pincha qaram monemadan avval keladi. Lekin o'zbek tilida avval qaram monema, keyin funksional monema keladi:

1.*Ko'cha tuprog'i iliq edi.* /O'tkir Hoshimov.O'zbeklar.163/

2.*Qodir telegramma bermagan edi.* /Shuhrat. Oltin zanglamas.468/

Berilgan misollarning birinchisida, *ko'cha* monemasini tahlil qilamiz. Semantik jihatdan qaraganda bu gapda qaratqich kelishigi belgisiz qo'llanayotganini ko'rishimiz mumkin, ya'ni *ko'chaning*. Shunda *ko'cha* so'zi o'zidan keyingi monemaga tobe bo'lib kelayotgani uchun - **qaram monema**, belgisiz qo'llanayotgan *-ning* qaratqich kelishigi esa- **funksional monema** vazifasida kelyapti.

Keyingi monema *tuprog'i* so'zi. Bu monema gapda aynan ega bo'lib kelayotgani uchun funksional monema vazifasini bajaryapti. Gapning kesimi ham xuddi shunday vazifada kelyapti, chunki ega va kesim gapda bir-birini vazifa bilan ta'minlab, gapning asosiy unsuri bo'lgan predikativlikni gavdalandiradi. Shuning uchun ham bu gapdagi egani alohida funksional monema, kesimni alohida funksional monema deb tavsiflaymiz. Bu yerda shu narsaga e'tibor berish kerakki, *tuprog'i* monemasidagi *-i*-egalik qo'shimchasi ko'pchilik adabiyotlarda monema sifatida olinmaydi. Lekin bunga professor N.Turniyozov e'tiroz bildirib, nafaqat turkiy tillarga xos bo'lgan egalik qo'shimchasini, balkim Yevropa tillariga xos bo'lgan artikllarni ham so'zni tildan nutqqa ko'chishida ma'lum bir vazifa bajaryotganini inobatga olib, ularni yarim funksional monema sifatida talqin qilish kerakligini aytadi.[4.40] Nega ularni to'liq funksional monema sifatida emas, balki yarim funksional monema sifatida talqin qilayotganini quyidagicha izohlaydi: "Artikl ot bilan "tirik". Ot bo'lmas ekan, u mustaqil faollik ko'rsata olmaydi. Ot birlamchi, artikl esa ikkilamchi xarakterga egadir. Boshqacha aytganda, artikl ot qaysi rodda va sonda bo'lsa, shunga ishora qiladi, xolos. Lekin ikkinchi tomondan, artikl qo'llanilmasa, otning grammatik shakli to'liq ifodalanmay qoladi. Ana shu jihatdan artiklni yarim funksional monema hisoblash lozim bo'ladi"[5.64]. Biz ham bu fikrga qo'shilgan holda, *tuprog'i* monemasidagi *-i* egalik affiksini **yarim funksional monema** sifatida tahlil qildik.

Ikkinchi misolda 3 ta funksional monema va 1 ta qaram monema qatnashyapti. Bunda ega va kesim predikativlikni yuzaga keltirib, 2 ta funksional monemani voqe'lantiryapti: *Qodir bermagan edi*. Keyingi monema - telegramma so'zi. Semantik jihatdan qaraganda, bu yerda tushum kelishigi belgisiz qo'llanyapti, lekin belgisiz qo'llanayotgan bo'lsa ham, u gapda

funksional monema bo‘lib kelyapti, chunki **-ni** qo‘shimchasi o‘zini ham, telegramma so‘zini ham funktsiya bilan ta‘minlab, telegramma so‘zini tildan nutqqa ko‘chishiga yordam beryapti, ya‘ni paradigmatic qatordan sintagmatic qatorga o‘tishiga vositachi bo‘lyapti. Shunda **telegramma** so‘zi-**qaram monema** vazifasida, belgisiz qo‘llanayotgan **-ni** tushum kelishigi **funksional monema** vazifasida kelyapti. “Funksional monemalarning belgisiz holda berilish hodisasi til imkoniyatlari bilan qanchalik bog‘liq bo‘lsa, nutq imkoniyatlari bilan ham shu darajada aloqadordir. Chunki, u bir tomondan belgilarning til sistemasi imkoniyatlari me‘yoridan ortiqcha qo‘llanilmasligini taqozo etsa, ikkinchi tomondan so‘zlovchi shaxsning til unsurlarini nutq jarayonida qay darajada tejashi masalasini aks ettiradi”[6.72].

Qo‘shimcha sifatida shuni aytishimiz mumkinki, bir gapning o‘zida monemaning hamma turlari qatnashishi ham mumkin:

Uning mahallasida bunday rangli mashina yo‘q edi, shekilli. /O‘lmas Umarbekov. Fotima va Zuhra.3/

Bu gapda 1ta muxtor monema, 5ta funksional monema, 4ta qaram monema, 1ta yarim funksional monema qatnashyapti. **Shekilli**-modal so‘zi voqea-hodisaga gumon ma‘nosini bildirib, gapning boshqa bo‘laklari bilan aloqa kirishmayapti, shu sababdan ham gapda **muxtor monema** vazifasida kelyapti. **-ning** qaratqich kelishigi, **-da** o‘rin-payt kelishigi, **-li** sifat yasovchi qo‘shimchasi, hamda **ega** va **kesim funksional monema** vazifasida kelyapti. **U**-olmoshi, **mahalla** va **bunday rang** so‘zlarini **qaram monema** deb olamiz, chunki ular funksional monemalarga tobe bo‘lib kelyapti. **Yarim funksional monema** vazifasini **-si** egalik qo‘shimchasi bajaryapti. Shunday ekan, har bir monema gapdagi o‘rni, vazifasiga qarab bir-biridan farqlanadi.

Shuni aytib o‘tishimiz kerakki, Andre Martine tavsiflagan funksional tahlil nazariyasi, aynan fransuz tiliga xos bo‘lgan qoidalar zamirida yuzaga kelgan. Shu jihatiga ko‘ra biz monemalarni o‘zbek tilining qonun-qoidalariga muvofiqlashtirgan holda o‘rganib chiqishga harakat qildik.

REFERENCES

1. Мартине А. Основы общей лингвистики // Новое в лингвистике. Вып.№ 3.-М., 1963.
2. N.Turniyozov, K.Turniyozova, X.Xayrullayev. Struktur sintaksis asoslari. - Samarqand: SamDCHTI, 2009.
3. Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. -М.: Прогресс, 1988.
4. N.Turniyozov. Xorijiy mamlakatlar lingvistik nazariyalari. -Samarqand: SamDCHTI, 2007.
5. Turniyozov N.Q. Tilshunoslikka kirish. -Samarqand: SamDCHTI, 2005.
6. Турниёзов Н., Турниёзова К. Функционал синтаксисга кириш. – Тошкент, 2003.
7. X. Xayrullayev. Tilshunoslik nazariyasi. Darslik. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 208 bet

